

**“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati  
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining  
2025 yil 18 yanvardagi  
1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga  
5-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: II-40

Sana: 20.01.2025 yil

Imzo

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI  
KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDAGI  
NIZOM  
(yangi tahriri)**

**Toshkent – 2025 yil**

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizom” (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) Kuzatuv kengashi maqomini va faoliyat yuritishini belgilaydi, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq o‘z vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

2. Bank Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman Bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgar hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

3. Bank Kuzatuv kengashi Bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan Bank Boshqaruvi a‘zolari o‘rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta‘minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

4. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolari Bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashishi hamda o‘z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog‘ida Bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta‘minlashi kerak.

5. Bank Kuzatuv kengashi qarorlari videokonferens-aloqa orqali ham qabul qilinishi mumkin.

### **2-bob. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasi**

6. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Bank Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyini

belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

Bank Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

Bank Boshqaruvining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Bank Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Bank Boshqaruvidan olish. Bank Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

Bankning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

Bankning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8-bobida (Yirik bitimlar tuzish) va 9-bobida (Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish) nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Bank Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan takdirida yirik bitim tuzish masalasini Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga hal qilishi uchun olib chiqish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

Bank Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarni tuzish va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav ustav kapitalini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil

etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan depozit sertifikatlari chiqarish, ularni qaytarib sotib olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning Boshqaruvini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bank Boshqaruvi a'zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning Boshqaruviga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

Bankning yillik biznes rejasini tasdiqlash;

Bank Boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasini tuzish, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish;

Bank Boshqaruv raisining vakolati muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi Bankning boshqa ichki meyoriy hujjatlarini tasdiqlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

biznes reja doirasida xayriya, homiylik va beg'araz yordam berish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga va Bankning Ustaviga hamda ushbu Nizomga muvofiq Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

7. Amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi va mazkur Nizom bilan Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank Boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

### **3-bob. Bank Kuzatuv kengashining vazifalari va majburiyatlari**

8. Bank Kuzatuv kengashining vazifalari va majburiyatlari quyidagilardan iborat:

o'z vakolatlarini aksiyadorlar manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

Bankka o‘z vakolatlariga mos ravishda rahbarlik qilishni ta‘minlash;

Bank faoliyati, kreditlar berish va mablag‘larni investitsiyalashning to‘g‘riligi ustidan joriy nazoratni amalga oshirish (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida);

Bankning yetarli darajadagi kapitallashuvini ta‘minlash;

Bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

Bankni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan biznes-rejalar ijrosini nazorat qilish;

Bankning foyda ko‘rishi monitoringini olib borish;

ichki audit xizmati faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish;

korporativ boshqarish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan talablarga rioya qilinishi to‘g‘risidagi hisobotni Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga taqdim etish.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bank Ustavida hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

#### **4-bob. Bank Kuzatuv kengashini saylash tartibi**

9. Bank Kuzatuv kengashining tarkibi 5 (Besh) a‘zodan iborat bo‘ladi. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolari o‘z mulohazalarining mustaqilligi bo‘yicha talablarga rioya etishi kerak.

10. Bank Kuzatuv kengashining a‘ziligiga ko‘rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishiladi.

11. Bank Kuzatuv kengashining a‘zolari “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, Bank Ustavida va mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

Quyidagi hollarda shaxs Bank Kuzatuv kengashi a‘ziligiga saylanishi mumkin emas yoki saylangan shaxs Bank Kuzatuv kengashi a‘zoliqi huquqidan mahrum etiladi, agar:

shaxs ikki yoki undan ortiq bankning Kuzatuv kengashi a‘zosi bo‘lsa yoki a‘zo bo‘lish niyatida bo‘lsa, bundan mazkur banklar bir bank guruhiga tegishli bo‘lgan hollar mustasno;

shaxsning vakolatlari Markaziy bank talabiga ko‘ra muddatidan ilgari tugatilgan bo‘lsa;

Bank Boshqaruvi a‘zolari, uning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a‘zolari;

Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar.

12. Bankning Kuzatuv kengashi a'zolaridan kamida bir nafari mustaqil a'zodan iborat bo'ladi.

Quyidagilar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'nggi uch yil ichida Bankda va (yoki) Bankning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

Bankning aksiyadori;

Bankning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi uch yil ichida Bankka va (yoki) Bankning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida Bankning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

Bank va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

Bankning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

Bankning ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

Bank Bankning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reyestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining reyestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu bandning ikkinchi qismida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u Bankni va Kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart va boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi.

Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi Bankka aloqador shaxslar bo'lmasligi kerak, bundan ularning kuzatuv kengashidagi a'zoligi mustasno.

Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini

himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

13. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar Bank Ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilab qo'yilishi mumkin.

14. Bank Kuzatuv kengashi a'zosining vakolatlari quyidagi holatlarda tegishli asoslar bo'yicha bekor qilinishi mumkin:

aksiyadorlarni yozma shaklda xabardor qilgan holda o'z vakolatlarini ixtiyoriy ravishda topshirish;

Bank Kuzatuv kengashi a'zosining vafoti;

Bank Kuzatuv kengashi a'zosining qamoqqa olinishi;

Aksiyador umumiy yig'ilishi tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi.

### **5-bob. Bank Kuzatuv kengashi raisi**

15. Bank Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Bank Kuzatuv kengashi tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

16. Bank Kuzatuv kengashi o'z raisini Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

17. Bank Kuzatuv kengashining raisi:

Bank Kuzatuv kengashi ishini tashkil etadi;

Bank Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi; majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

18. Bank Kuzatuv kengashining raisi qonunchilik hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

19. Bank Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Bank Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

### **6-bob. Bank Kuzatuv kengashi majlisi**

20. Bank Kuzatuv kengashining majlisi quyidagi hollarda chaqiriladi:

Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra;

Bank Kuzatuv kengashi a'zosining talabiga ko'ra;

Taftishchining talabiga ko'ra;

Bank Boshqaruvining talabiga ko'ra;

ichki audit xizmati rahbarining talabiga ko'ra;

tashqi auditorning talabiga ko'ra;

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki talabiga ko'ra.

21. Bank Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Bank Kuzatuv kengashi a'zolari belgilangan sonining kamida 75 (Yetmish besh) foizini tashkil qilishi kerak.

22. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Bank Ustavi va mazkur Nizomda nazarda tutilgan miqdorning 75 (Yetmish besh) foizidan kam bo'lgan taqdirda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylanadi.

23. Bank Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilik hujjatlarida hamda Bank Ustavida va mazkur Nizomda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Bank Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

24. Bank Kuzatuv kengashining majlisida quyidagi qarorlar bir ovozdan qabul qilinishi lozim:

Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi;

Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorning 15 (O'n besh) foizidan 50 (Ellik) foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi;

affillangan shaxs bilan bank tomonidan bitim tuzish to'g'risidagi.

Shuningdek, Bank Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Bank Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

25. Bank Kuzatuv kengashining ikki va undan ko'proq a'zosi affillangan shaxslar bo'lgan holatda, bitim bo'yicha qaror Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bankning affillangan shaxsi Bank Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilinishida muhokamada ishtirok etishga va ovoz berishga haqli emas.

26. Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Bank Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

27. Bank Kuzatuv kengashi o'z ishini tashkil qilish uchun korporativ kotib (yoki korporativ maslahatchi)ni tayinlashi mumkin. Korporativ kotib (yoki korporativ maslahatchi) Bank Kuzatuv kengashi va (yoki) Bank Boshkaruvi a'zosi hisoblanmaydi va u Bank Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

Korporativ kotib (yoki korporativ maslahatchi)ni tayinlash va ularning faoliyati Bankning alohida ichki meyoriy hujjati bilan tartibga solinadi.

28. Bank Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (O'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar



ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

29. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etgan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi.

30. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini qaror qabul qilish uchun chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Bank Boshqaruviga Bank Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

### **7-bob. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari**

31. Bank Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

o'z mulohazalarining mustaqilligi bo'yicha talablarga rioya etishi;

Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishida shaxsan ishtirok etish, yig'ilishda muhokama etilayotgan masala bo'yicha reglamentda ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;

sirtidan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinayotgan qaror bo'yicha o'z fikrini berish;

muayyan davr mobaynida bank faoliyatining natijalari, uni rivojlantirish rejalari haqida to'liq va ishonarli axborot olish;

zimmasidagi vazifalarni bajara turib Bank Kuzatuv kengashidagi ishi uchun muayyan mukofot olish.

32. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida vazifalar Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan taqsimlanadi.

Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun Bankning ichki meyoriy hujjatlariga muvofiq haq to'lab boriladi. Shuningdek, hisobot yil yakunlari bo'yicha Korporativ boshqaruv tizimi va Bank faoliyatining moliyaviy natijalarining xolisona baholanishi natijalariga ko'ra Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot to'lanishi mumkin.

33. Bank Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi majburiyatlarga ega:

benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

Bank manfaatlari hisobga olingan holda o'z vakolatlarni amalga oshirish;

Bank Ustavida belgilangan tartibda malakali Bank Boshqaruvi a'zolarini

ishga yollash va ularni tasdiqlash;

Bank Boshqaruvi bilan maslahatlashgan holda Bankning uzoq va qisqa muddatli biznes-rejasini belgilash va ijrosini nazorat qilish;

Bank maqsadlariga erishish hamda qonuniy, xavfsiz va samarali bank faoliyatini yuritish uchun zarur ichki siyosatlarini belgilash;

qonunchilik hujjatlariga va Bank siyosatlariga muvofiq bank operatsiyalari ustidan amalga oshirilayotgan yetarli nazoratni amalga oshirish;

Bankning joriy faoliyatini kuzatish;

amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi va mazkur Nizom bilan belgilangan vakolatlar doirasida boshqa majburiyatlar.

34. Bank Kuzatuv kengashi a'zosi Bank taraflardan biri bo'lgan bitimda moliyaviy manfaatdorlikka ega bo'lgan holatda, shuningdek Bank Kuzatuv kengashi a'zosining boshqa manfaatlar to'qnashuvi holatida Bank Kuzatuv kengashi a'zosi bitim tuziladigan paytgacha Bank Kuzatuv kengashini o'z manfaatdorligi to'g'risida oldindan xabardor qilishi shart, bitim to'g'risida qaror esa Bank Kuzatuv kengashining bunday manfaatdorlikka ega bo'lmagan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi yoxud Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinishi kerak. Bunda, Bank Kuzatuv kengashining manfaatdor a'zolari bunday bitim bo'yicha muhokamada ham, qaror qabul qilishda ham ishtirok etmaydilar.

35. Bank o'ziga aloqador shaxslar bilan qonunchilik xujjatlarini hisobga olgan holda faqat Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra bitimlar tuzishi mumkin. Agar shaxs Bank bilan bitim tuzish bo'yicha shartnoma imzolanganidan keyin Bankka aloqador shaxsga aylansa, Bank Kuzatuv kengashi shaxs Bankka aloqador shaxsga aylangan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida mazkur shartnomani ma'qullashi yoki uni bekor qilish to'g'risida farmoyish berishi kerak.

36. Bank Kuzatuv kengashining a'zosi Bank bilan o'zi o'rtasida yoki o'ziga aloqador shaxs o'rtasida tuzilgan yoki tuziladigan bitim masalasi ko'rilayotgan Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishida hozir bo'lmasligi, Bank Kuzatuv kengashi qabul qiladigan qarorga ta'sir ko'rsatishga urinmasligi kerak.

Bank o'ziga aloqador bo'lgan shaxslar bilan tuzilgan bitimlarning alohida ro'yxatini yuritishi va Markaziy bankni Bankka aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzilishi oldidan xabardor etishi shart.

37. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari Bank Kuzatuv kengashi tomonidan biron-bir qarorlar qabul qilinishiga ta'sir o'tkazganligi uchun bevosita yoki bilvosita mukofot olish huquqiga ega emaslar.

38. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari Bank imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, bank faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborotdan) shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishga haqli emaslar.

39. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi manfaatlari va huquqlarini Bank Kuzatuv

kengashi quyidagi usullar bilan himoya qiladi:

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining manfaatlarini hisobga olgan holda Bank faoliyatini samarali tashkil qilish;

Bankning ustav fondi (kapitali)ni ko'paytirish yoki kamaytirish, qo'shimcha aksiyalar va shu kabilarni chiqarish yo'li bilan o'zgartirilganida aksiyadorlarning huquqlari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

Bankning samarali dividend siyosatini ishlab chiqish;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bilan o'zaro munosabatlarga bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

Bank Boshqaruvning g'ayriqonuniy hamda noloyiq harakatlari ustidan aksiyadorlarning shikoyat va takliflarini o'rganish.

### **8-bob. Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish**

40. Bank Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvidan Bankning moliyaviy ahvoli va faoliyati to'g'risida vaqti-vaqti bilan (har chorakda kamida bir marta) sharhlar hamda yozma hisobotlarni, jumladan ularni yaxshilashga oid tavsiyalarni olib turadi, shuningdek Bank Boshqaruvi raisi va ichki audit xizmati rahbarining ma'ruzalarini tinglaydi.

Bank Kuzatuv kengashi a'zolari shunday hisobotlar va tavsiyalarning to'g'riligini hamda amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadida ularni sinchiklab tekshiradilar.

41. Bank Kuzatuv kengashi Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifalarni bajarish uchun tegishli qo'mita (va/yoki komissiya)lar tashkil etishi va ular to'g'risida nizomlarni ishlab chiqishi mumkin.

42. Har bir qo'mita (va/yoki komissiya) o'z faoliyat masalalari bo'yicha mustaqil yig'ilishlar o'tkazadi va Bank Kuzatuv kengashi oldida amalga oshirilgan ishlar yakunlari to'g'risida hisobot berib boradi.

43. Qo'mita (va/yoki komissiya)lar tarkibiga Bank Kuzatuv kengashining a'zosi (a'zolari) kiritilishi lozim.

44. Bank Kuzatuv kengashi qo'mita (va/yoki komissiya)larga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlar ijrosini muntazam ravishda nazorat qilishi, bunga yetarlicha vaqt ajratishi va qo'mita (va/yoki komissiya)larning tajribali a'zolar bilan butlanishini ta'minlashi shart.

### **9-bob. Kadrlar siyosatini amalga oshirish**

45. Bank Kuzatuv kengashi Bank boshqaruvining xalqaro tajribaga muvofiq zamonaviy usullari joriy qilinishini amalga oshiradi, Bank faoliyatining mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

46. Bank Kuzatuv kengashi Bankning kadrlar siyosatini, Bankka yuqori

malakali, bilimdon, tajribali, ilg'or fikrlovchi, tashabbuskor va mas'uliyatli rahbarlar hamda xodimlarni jalb etish strategiyasini ishlab chiqishni amalga oshiradi.

47. Kadrlar siyosati qonunchilik hujjatlariga muvofiq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bank xodimlarini mukofotlash, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik chorasini ko'rish;

o'qitish va qayta o'qitish dasturi;

Bank rahbar xodimlarini tayinlash tartibi;

Bank rahbariyatini ishdan bo'shatish majburiy bo'lib qoladigan hollarni aniqlash.

48. Bank Kuzatuv kengashi quyidagilarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:

Bank Boshqaruvi a'zolari va Bank asosiy xizmatlari rahbarlari faoliyatini baholash mezonlari;

Bank xodimlari korporativ etika kodeksi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari;

bilimsizligi, nopokligi, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa sabablar oqibatida Bankning manfaatdor shaxslari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalardan chetlashtiriladigan shart-sharoitlar ro'yxati.

### **10-bob. Bankning adekvat kapitallashishini ta'minlash**

49. Bank kapitalini saqlash hamda uni Bankning operatsiyalar ko'lamiga va tavakkalchilik darajasiga mos bo'lishini ta'minlash maqsadida Bank Kuzatuv kengashi:

Bank tomonidan ehtimoliy yo'qotishlarga maxsus zaxiralarning o'rnatilgan tartibda yaratilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan darajadan yuqori bo'lmagan bank tavakkalchiligi darajasini ta'minlashni Bank Boshqaruvidan talab qiladi;

qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilinganda, Bank mazkur qimmatli qog'ozlarni joylashtirish choralari ko'radi;

Bankning kapital va umumiy zahiralari yetarlicha darajada saqlanishini ta'minlaydi.

### **11-bob. Bankning rivojlanish strategiyasi va biznes-rejasini tuzish hamda bajarilishini nazorat qilish**

50. Bank Kuzatuv kengashi Bankning rivojlanish strategiyasi va biznes-rejasini mustaqil ravishda va/yoki chetdan maslahatchilar va ekspertlarni jalb etgan holda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi hamda u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari;

boshqaruvning xalqaro tajribaga muvofiq zamonaviy usullarini joriy qilish;  
bank operatsiyalari to'g'risida qarorlar qabul qilish siyosati;  
aktivlar va passivlarni samarali boshqarish tizimi;  
investitsiyalash tartibi va shu kabilar.

51. Bank Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi tomonidan Bankning rivojlanish strategiyasini amalga oshirilishini va biznes-rejaning bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi.

52. Bankni rivojlantirish strategiyasi va biznes-rejasi odatda zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

## **12-bob. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi**

53. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda o'z burchlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim. Bank Kuzatuv kengashining a'zolari qonunchilik hujjatlari va Bank Ustaviga muvofiq Bank va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida javobgardir.

54. Bank Kuzatuv kengashi majlisida ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka ziyon yetishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

## **13-bob. Yakuniy qoidalar**

55. Mazkur Nizomga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

56. Ushbu Nizom talablariga rioya qilinmagan mas'ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

57. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

58. Ushbu Nizomning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.